



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Lobar Berdiyeva
Norqobulovna

Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM
Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR IJODKORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar ijodkorligini oshirish metodikasi haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari orasida o'yin texnologiyalarining o'rni ochib berilgan. "Sirli bo'g'inlar", "Tezda o'yla" didaktik o'yinlarini foydalanishga oid tavsiyalar berilgan.

Annotation: The article provides information on the method of increasing students' creativity in primary school mother tongue and reading literacy classes. The role of game technologies is revealed among personal educational technologies. Recommendations regarding the use of didactic games "Mysterious joints" and "Think fast" are given.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslari, ijodkorlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, xalq pedagogikasi, o'yin texnologiyalari, pedagogik jarayon,

Key words: Primary class native language and reading literacy classes, creativity, person-oriented educational technologies, folk pedagogy, game technologies, pedagogical process.



Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari orasida o'yin texnologiyalari muhim o'rinni tutadi. O'yin- kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmuning bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli.

Kishilik taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin sub'yeqt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari- mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarsi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan.

O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Yuqoridagi xususiyatlari tufayli o'yinlar qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelgan. Bundan tashqari o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

Agarda jismoniy hatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat'iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o'yinlar ularni o'ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatadi.¹

Zamonaviy pedagogikada o'yinlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faolligini kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi. O'yinning mohiyati va tuzilishi ma'lum ko'nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o'yin davomida shakllanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchi pedagogik vazifalarini snariyda aniq ifodalay olish lozim. O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, o'zining hayotda o'rnini belgilash, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini yaratadi.

O'quv faoliyatining asosiy motiv – bu o'quv bilish motiv bo'lsa, o'quv – biluv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa o'quvchida o'zi tanlagan va asoslarini o'zlashtirayotgan kasbga bo'lgan qiziqish sanaladi. O'quvchi o'quv jarayonida egallagan bilimlaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish muhim o'rinni tutadi. Bundan tashqari o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o'stiradi.

Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar- o'yin texnologiyalari deb nomlanadi.

¹ Muslimov N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent. 2015. 158-bet.



O'yin texnologiyalari- ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy –baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lif turlaridan biri.²

Har qanday o'yin pedagogik jarayonda foydalanilganda o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi. Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiylashtirish, kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida o'quvchining turli holatlarda o'quv materialini tushunishi va o'zlashtirishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik o'yinlar metodikasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: didaktik, siyujetli, rolli, ishbilarmon, imitatcion, dramatik.

Bugungi kunda o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishning bir qator usullari mavjud. Bunday usullarning eng samaralisi didaktik o'yinlardir.

Didaktik o'yinlar- o'rganilayotgan ob'yekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lган qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati hisoblanadi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilar tomonidan ijtimoiy –foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi.

Didaktik o'yinlar- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limiylar. Didaktik o'yinlar o'quv mashg'ulotining turi bo'lib, o'quv o'yinlari shaklida ifoda etiladi. Didaktik o'yinlar faol o'qitish prinsiplariga asoslanadi.

Didaktik o'yinlar mohiyatiga ko'ra murakkab va ko'pqirrali hodisadir. U o'qitish metodi sifatida namoyon bo'ladi. Didaktik o'yinlar bir qator pedagogik vazifalarni bajaradi.

Ta'limiylar vazifa- bunda didaktik o'yinlar o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, ularning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil bilim olish layoqatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyalovchi vazifa- o'quvchilarni jamoa bilan ishlash, do'stlariga nisbatan hurmat, bag'rikenglikni shakllantiradi.

Rivojlantiruvchi vazifasi- o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, faollikka undash, o'z fikrini erkin bayon eta olish, bilimga nisbatan bo'lган qiziqishlarini shakllantirishdan iborat.

² Muslimov N. Innovatsion ta'lif texnologiyalari. Toshkent. 2015. 159-bet.




Yo'naltiruvchi vazifasi- o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash, mustaqillikni shakllantirishdan iborat.³

Dars jarayonida amalga oshirilayotgan o'yinlar jarayonida o'quvchilar yo'l qo'yan xatolari uchun ma'naviy jihatdan mas'uliyatni his qilishadi. O'zaro ishonch, bir-birini tushunish, hamkorlik muhiti paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchilar xulqatvorini tuzatish va yaxshilashga olib keladi.

Shunday ekan, biz boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirishda qanday didaktik o'yin turlaridan foydalanamiz?

Boshlang'ich sinf ona tili darslari o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga va og'zaki nutqini o'stirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan fan hisoblanadi. Ona tili darslarida quyidagi didaktik o'yinlardan keng foydalanishimiz mumkin.

1. **“Sirli bo'g'inlar” o'yini.** Bu didaktik o'yinda bo'g'inlar tavsiya etiladi, o'quvchilar yoki o'quvchilar guruhi tavsiya etilgan bo'g'inlardan yangi so'zlar tuzadilar. Bu o'yin orqali o'quvchilarning yozma savodxonligi oshiriladi. Yangi so'zlar topib, lug'at boyligi o'stiriladi.



³ Pedagogika: ensiklopediya. Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 277-bet.



2. “Tezda o’yla” didaktik o’yini

Mavzu tanlanadi. O’qituvchi o’yining shartini o’quvchilarga tushuntiradi. Har bir guruhga so’z yozib beriladi. O’quvchilar bittadan so’z yozib gaplar tuzadilar. So’zlarni yozguncha har bir guruhdan o’quvchilar navbat bilan chiqadilar. Bu didaktik o’yin o’quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o’stiradi, tezkorlikka undaydi.

Mavzu: Bog’da

- 1—o’quvchi. Bog’da
- 2—o’quvchi. Bog’da olma
- 3—o’quvchi. Bog’da olma, olcha,
- 4—o’quvchi. Bog’da olma, olcha, ko’ksulton
- 5—o’quvchi. Bog’da olma, olcha, ko’ksulton mevalari
- 6—o’quvchi. Bog’da olma, olcha, ko’ksulton mevalari pishgan.

Mavzu: Bahor

- 1.—o’quvchi: Bahorda
- 2—o’quvchi: Bahorda daryolar
- 3—o’quvchi: Bahorda daryolar suvi
- 4—o’quvchi: Bahorda daryolar suvi toshib
- 5—o’quvchi: Bahorda daryolar suvi toshib oqadi.

Interaktiv metod - ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollilikni oshirish orqali o’quvchilarning bilimlarini o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interaktiv ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha darslar jarayonida interaktiv usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interaktiv usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o’quvchi yaxlitning qismlarini va ular o’rtasidagi o’zaro bog’liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko’radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqlashtirish, tasniflash, tahmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o’quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o’tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma’lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga



muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalahtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinatsiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Interaktiv usullar ko‘p turli bo‘lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan dars oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi.

Metodlarni to‘g‘ri tanlash darsning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Interaktiv metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu metodlardan amalda foydalanish konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

- o‘quvchi o‘zi o‘rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o‘rgata olmaydi;

- o‘qituvchi o‘quvchilarga bilimlarni “kashf qilishga” yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

- bilim borliqan ko‘chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirishda “**Klaster**” interfaol metodidan keng foydalanamiz. “**Klaster**” metodi- g‘uncha, to‘plam, bog‘lam kabi ma’nolarni anglatib, ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasida aloqalarni topish imkoniyatini yaratadigan interfaol metod. G‘oyaga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar guruh asosida tashkil etilgan darslar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilgan darslarda ushbu metod guruh a’zolari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

Bu usulda biror mavzu yoki matn tanlanib, o‘quvchining diqqatini aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi. O‘quvchilar mavzuga oid barcha fikrlarini aytadilar, o‘qituvchi yoki guruh sardori yozib boradi. Fikrlar bayon etilgandan so‘ng har bir fikr yoki so‘zlarni toifalarga ajratib chiqadilar.

Usulning maqsadi:


- o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish; nutqni takomillashtirish; fikrlash qobiliyatini oshirish; toifalarga ajrata olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

3-sinf “Ona tili” darsligidagi “Fe‘l yasovchi qo’shimchalar”⁴ mavzusida quyidagicha qo’llanadi:

⁴ S. Fuzalov va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rtalim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent. O‘qituvchi. 2019. 122-bet.



2. “Son” mavzusini o’rganishga oid.



Boshlang’ich sinf ona tili darslarida o’quvchilar kreativligini shakllantirish yo’llari. O’quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun birinchi navbatda ularning savollarini va javoblarini cheklamaslik kerak. Hamda o’quvchilarni ko’p savol berishlarini rag’batlantirib turish lozim. Masalan, ona tili darsliklarida mashqlar berilgan bo’lib, ularning har birida mavzuga oid gaplar bor.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, an‘anaviy ta‘limda o’qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lgan bo‘lsa, yuqoridaqgi berilgan usul va dars namunalarida ko‘rinib turganidek, o’qituvchining vazifasi o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshirish, dars jarayonida o‘z fikrlarini himoya qilish, taqqoslash kabilarga qaratilgan. Albatta, ushbu interfaol usullarni joriy etish, o’quvchilar faolligini oshirish, kreativligini shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo‘lgan tarbiyalanuvchi shaxsini to‘la shakllantirish imkoniyatlari har birimizning qo‘limizdadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirish uchun shaxsiy qo'shma majlisidagi nutqi". Toshkent - «O'zbekiston» - 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". 2019 –yil 29-apreldagi PF-572-son Farmoni.
3. Muslimov N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. 2015. 73-bet.
4. Muslimov N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent. 2015. 158-bet.
5. Pedagogika: ensiklopediya. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 277-bet.